

TIJORAT BANKLARDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI O'TKAZISHDA AUDITORLIK RISKINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

*Qo'qon universiteti Xalqaro turizm va
iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi
Jurayev Umidjon Shuxratjon o'g'li
umidjonjurayev09@gmail.com*

Annotatsiya.

Mazkur ilmiy maqola bugungi kunda tijorat banklarda auditorlik tekshiruvini o'tkazishda auditorlik riskini baholashning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida statistik va tahliliy tadqiqotlar keltirilgan. Auditorlik riskini baholash tijorat banklarida muhim rol o'ynaydi, chunki banklar moliyaviy xizmatlarning keng doirasini taqdim etadilar va ularning faoliyati bir nechta yuridik va moliyaviy normativlarga asoslanadi. Mazkur tadqiqot ishi tijorat banklarida auditorlik tekshiruvini o'tkazishda auditorlik riskini baholashga doir xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan. Auditorlik jarayonlaridagi risk darajasini aniqlash uchun banklar tomonidan taqdim etilgan hisobotlar va amaliy ma'lumotlar o'rganildi. Mahalliy tijorat banklarining ichki auditorlik jarayonlarida qo'llaniladigan metodlar amaliyotda kuzatildi va baholandi va xulosa takliflar berildi.

Kalit so'zlar: MB, Audit, tijorat banklari, moliyaviy hisob, kredit, omonat.

Kirish qismi.

Har bir auditorlik tekshiruvining ish jarayoni umumlashtirilishi va uning asosida xulosalar tayyorlanishi talab qilinadi. Shuning uchun ham, auditning yakuniy jarayoni o'zining mohiyatiga ko'ra, tekshiruv rejasining qanchalik bajarilganligi va uning natijalari yetarlicha dalillar bilan tasdiqlanganligi, shu bilan birga, bevosita hujjatlashtirilishi natijasida berilgan xulosalarni yetarlicha asosli ekanligini o'rganishning ahamiyati kattadir. Auditorlik tekshiruvlari tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini ta'minlash, ichki nazorat tizimlarining samaradorligini baholash, va qonunlarga muvofiqligini tekshirish maqsadida o'tkaziladi. Tijorat banklari moliyaviy tizimning asosiy qismlaridan biri bo'lib, ularning faoliyati iqtisodiy barqarorlikni saqlashda va jamiyatning ishonchini qo'lga kiritishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun auditorlik riskini baholashning o'ziga xos xususiyatlari banklarda amalga oshiriladigan audit jarayonining samaradorligi uchun alohida ahamiyatga ega. Auditorlik riskini baholashni aniq va to'liq amalga oshirish auditorning ish sifatini yaxshilaydi, bu esa bankning moliyaviy holatini to'g'ri aks ettirishni ta'minlaydi.

Banklar moliyaviy xizmatlar ko'rsatishning asosiy operatorlari sifatida yirik mablag'lar bilan ishlashadi, shu sababli ularning moliyaviy hisobotlari va moliyaviy

holatini tekshirish auditorlar uchun ayniqsa murakkab va mas'uliyatli vazifa hisoblanadi. Auditorlik tekshiruvini o'tkazishda auditorlik riskini baholash katta ahamiyatga ega, chunki noto'g'ri qarorlar qabul qilinsa, bu mijozlarga, bankka va hatto butun moliya tizimiga zarar yetkazishi mumkin.

Auditorlik riskini baholash — bu auditorning tekshirish jarayonida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan xatoliklar va noma'lum xatoliklar ehtimolini baholash jarayonidir. Tijorat banklarida bu riskni baholashning o'ziga xos xususiyatlari mavjud, chunki banklar o'z faoliyatida murakkab moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiradi, shu jumladan kreditlar, depozitlar, investitsiyalar va boshqa moliyaviy vositalar bilan ishlashadi.

Adabiyotlar tahlili.

Ibragimov, A. K va Qo'ldoshev, D. M. larning fikriga ko'ra tijorat banklarida ichki auditorlik risklarini ko'rib chiqish uchun, eng avvalo, auditorlik riski tushunchasiga aniqlik kiritish lozim. Chunki banklarning ko'p jihatlari kabi, kelajakda bizni qanday xavf-xatar kutayotganligini to'liq ko'ra bilish yoki risklarni to'liq bartaraf eta imkoniyati mavjud emas. Ammo, zamonaviy axborot texnologiyalar va olimlarning ushbu masalada olib borayotgan izlanishlari natijasida bu risklarni minimalashtirishga yordam beradi¹.

Maxmirzayev, A. T. o'g'lining fikriga ko'ra moliyaviy hisobotlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatoliklarning ahamiyatini belgilash jarayoni bo'lib, u audit natijalarining ishonchliligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Auditorlik riski esa moliyaviy hisobotlarda xatoliklar mavjud bo'lishi ehtimoli va auditorlik hisobotida bu xatoliklarning aks etmasligi bilan bog'liq xavflarni ifodalaydi².

Karimova, N. maqolasida yozishicha tijorat banklarida daromad va xarajat auditini takomillashtirish bo'yicha nazariy va amaliy masalalar. Shuningdek, audit jarayonlarida zamonaviy texnologiyalardan, jumladan, avtomatlashtirilgan tizimlar va analitik vositalardan qanday foydalanish imkoniyatlari haqida fikr yuritgan³.

Safarova, M. R. tadqiqoti davomida xalqaro tajriba asosida O'zbekistonda xalqaro pul o'tkazmalarining hisobi va auditini takomillashtirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Xususan, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish, audit jarayonlarini raqamli texnologiyalar orqali soddalashtirish kabi chora-tadbirlar taklif etiladi. Bu bilan nafaqat banklar orasidagi o'zaro

¹Ibragimov, A. K., & Qo'ldoshev, D. M. (2024). Tijorat banklarida ichki auditida muhimlik va auditor riski masalalari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2(maxsus son), 10-16.

²Maxmirzayev, A. T. o'g'li. (2024). Bank auditida muhimlik va auditor riskini takomillashtirish. International Journal of Scientific Researchers, 8(1).

³ Karimova, N. (2024). Tijorat banklarida daromad va xarajat auditini takomillashtirish. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(08), 232-238.

munosabatlarni rivojlantirish, balki xalqaro moliyaviy tranzaksiyalar xavfsizligi va shaffofligini ta'minlashga erishiladi⁴.

Metodologiya.

Mazkur tadqiqot ishi tijorat banklarida auditorlik tekshiruvini o'tkazishda auditorlik riskini baholashga doir xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan. Auditorlik jarayonlaridagi risk darajasini aniqlash uchun banklar tomonidan taqdim etilgan hisobotlar va amaliy ma'lumotlar o'rganildi. Mahalliy tijorat banklarining ichki auditorlik jarayonlarida qo'llaniladigan metodlar amaliyotda kuzatildi va baholandi. Bunda asosan Statistika tahlillardan foydalangan holda tahlil qilingan. Ichki audit hisobotlari, Kredit va qarz portfeli to'g'risidagi ma'lumotlar, Banklarning moliyaviy natijalari shulardan foydanlangan holda ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari.

Auditorlik riski - bu auditorning tekshiruv jarayonida xatolik yoki noqonuniy holatlar tufayli noto'g'ri yoki yolg'on moliyaviy hisobotlarni tasdiqlash ehtimoli. Auditorlik riski ba'zan ikkita asosiy komponentga bo'linadi:

1. Xatolik riski (Risk of material misstatement): Hisobotlarda noto'g'ri ma'lumotlar mavjudligi ehtimoli.

2. Auditning aniq bajarmaslik riski (Detection risk): Auditor tomonidan xatoliklarni aniqlashda muvaffaqiyatsizlik ehtimoli.

Tijorat banklarida auditorlik riski bir nechta omillarga bog'liq bo'lib, ularni turli jihatlariga qarab quyidagicha ajratish mumkin:

Inherent risk (tabiiy risk) — bu audit ob'ektida, ya'ni tijorat bankining faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatoliklar va buzilishlar ehtimoli. Banklarning o'ziga xos moliyaviy operatsiyalari, ularning murakkabligi va xalqaro hisob-kitoblarda qatnashishi tabiiy ravishda xatoliklar yoki buzg'unchiliklar yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

Kontrol risk (nazorat riski) — bu bankning ichki nazorat tizimi va boshqaruv jarayonlari samaradorligi bilan bog'liq riskdir. Agar bankning ichki nazorat tizimi yetarlicha kuchli bo'lmasa, xatoliklar va firibgarliklar ehtimoli ortadi.

Detektsiya riski — bu auditorning xatoliklarni yoki buzilishlarni aniqlay olmaslik ehtimoli. Auditorlar tekshiruvni o'tkazishda bankning operatsiyalarini to'liq va aniq tekshirishi kerak. Bunda auditorning metodologiyasi, malakasi va tekshirishni amalga oshirishning samaradorligi katta rol o'ynaydi.

Tijorat banklarida auditorlik riski ko'proq murakkab va o'ziga xos xissoblanadi, chunki banklar ko'plab moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiradi, shuningdek, ularning moliyaviy hisobotlari bir nechta turli xil hisob-kitoblardan iborat bo'lishi mumkin. Auditing riskini baholashda, auditorlar bankning ichki nazorat tizimlarini,

⁴ Safarova, M. R. (2024). Tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalari hisobi va auditini takomillashtirish masalalari. Tadqiqotlar, 47(2), 83-92.

tashqi va ichki muhitni, biznes jarayonlarini va bankning risklarni boshqarish usullarini hisobga olishlari zarur.

Auditorlik riskini baholashning o'ziga xos xususiyatlari.


Tijorat banklarida auditorlik riskini baholashning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Moliyaviy operatsiyalarning murakkabligi va ko'pligi;

Tijorat banklarining moliyaviy operatsiyalari juda murakkab bo'lishi mumkin, chunki ular turli xil kreditlash, depozit olish, valuta operatsiyalari va boshqa moliyaviy mahsulotlarni o'z ichiga oladi. Har bir operatsiya o'ziga xos xatolik riskini yaratadi, shuning uchun auditorlar har bir operatsiya turi uchun alohida risklarni baholashlari zarur. Auditorlar uchun, bankning barcha operatsiyalarining qaysi biri eng katta risklarga ega ekanligini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Ichki nazorat tizimi;

Auditor bankning ichki nazorat tizimini baholaganda, bankning riskni boshqarish strategiyalarini va usullarini, shu jumladan tizimlar, jarayonlar, va ichki auditning samaradorligini o'rganishi kerak. Ichki nazorat tizimining zaif tomonlari auditorning aniqlash riskini oshirishi mumkin. Bankdagi ichki nazorat tizimining ishonchliligi auditorlik riskini kamaytiradi, aks holda auditorlik xatoliklarining aniqlanmaslik xavfi ortadi.



1-rasm. Auditorlik tekshiruvi usullarini rivojlantirish yondashuvlari⁵.

Tijorat banklarining moliyaviy resurslarining ko'pligi;

Tijorat banklarida moliyaviy resurslar juda katta, va bu banklar ko'plab moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Bu holat auditorlarga bankning barcha moliyaviy operatsiyalarini kuzatishda yanada katta yuk va majburiyat yuklaydi.

⁵ Manba: muallif tarafidan ishlangan

Auditorlar bankning moliyaviy resurslarini, ayniqsa, kreditlar va investitsiyalarni tekshiruvda diqqat bilan baholashlari kerak.

Xalqaro va milliy tartibga solish;

Tijorat banklari xalqaro va milliy tartibga soluvchi idoralar tomonidan nazorat qilinadi. Auditorlar bu qonunlarga, me'yorlarga va tartibga solish talablariga rioya qilishni tekshirishlari kerak. Xususan, ba'zi banklar xalqaro miqyosda faoliyat yuritganligi sababli, turli yuridik tizimlarda farqlarni hisobga olish va xalqaro audit va regulatsiyani o'z ichiga olgan risklarni baholash zarur.

Axborot texnologiyalarining roli;

Bugungi kunda axborot texnologiyalari bank faoliyatida katta rol o'ynaydi, va ko'plab operatsiyalar va hisobotlar elektron shaklda amalga oshiriladi. Auditorlar uchun axborot texnologiyalarining ishlashini tekshirish, kiberxavfsizlikni baholash va tizimlarning ishonchliligini aniqlash muhimdir. Axborot texnologiyalarining zaif joylari auditorlik riskini oshirishi mumkin.

Moliya bozoridagi o'zgarishlar va iqtisodiy sharoitlar;

Banklarning moliyaviy natijalariga iqtisodiy sharoitlar va moliya bozoridagi o'zgarishlar katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Auditorlar o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitda bankning moliyaviy holatini baholashda ehtiyotkorlik bilan yondashishlari lozim. Banklarning qarz qobiliyati va investitsiya portfelining risklari iqtisodiy o'zgarishlarga qarab tezda o'zgarishi mumkin.

Auditorlik riskini kamaytirish usullari;

Auditorlar auditorlik riskini kamaytirish uchun bir qancha usullarni qo'llashlari mumkin. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Ichki nazorat tizimini baholash;

Bankda mavjud ichki nazorat tizimi va protseduralarini baholash orqali auditorlar potentsial xatoliklar yoki firibgarliklarni aniqlashlari mumkin.

Risk asosida audit rejalarini tuzish;

Auditorlar bankning moliyaviy va operatsion risklarini aniqlab, auditni shu xavf-xatarlarga qarshi yo'naltirishlari lozim.

Texnologik xavfsizlikni tekshirish;

Banklarning texnologik infratuzilmasi va kiberxavfsizlik tizimlarini baholash orqali auditorlar xatoliklar va hujumlarga qarshi himoya qilishlari mumkin.

Xalqaro va milliy standartlarga muvofiqlikni tekshirish;

Bankning barcha faoliyatlari xalqaro va milliy moliyaviy standartlarga muvofiq ekanligini tekshirish auditorlik jarayonining ajralmas qismidir. Tijorat banklarida auditorlik riskini baholash, ko'plab ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Auditorlar bankning moliyaviy operatsiyalarini, ichki nazorat tizimini, axborot texnologiyalarini va iqtisodiy sharoitlarni chuqur o'rganishlari zarur. Bank auditining samaradorligi auditorning risklarni aniqlash va ularga tegishli

choralarni ko'rish qobiliyatiga bog'liq. Auditorlik riskini to'g'ri baholash orqali auditorlar bankning moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini ta'minlaydi va shuningdek, moliyaviy bozorlarning ishonchini mustahkamlaydi. Auditorlik riskini baholashning o'ziga xos xususiyatlari banklarning murakkab operatsiyalari, ichki nazorat tizimi, xalqaro operatsiyalar va boshqa faktorlar bilan bog'liq xissoblanadi. Auditorlar risklarni aniqlash va kamaytirish uchun ko'plab metodlarni qo'llashlari kerak. Banklar va auditorlar o'rtasida samarali hamkorlik auditorlik risklarini muvaffaqiyatli baholashga yordam beradi va moliyaviy holatni aniq aks ettirishga imkon yaratadi.

Tadqiqot muhokama qismi

Tijorat banklarida auditorlik tekshiruvini o'tkazishda auditorlik riskini baholash bank faoliyatining murakkabligi va yuqori xavf darajasi tufayli alohida ahamiyatga ega. Ushbu bo'limda tadqiqot davomida aniqlangan muhim natijalar muhokama qilinadi va ular auditorlik riskining tijorat banklariga xos bo'lgan jihatlari bilan bog'liq asosiy omillarni ochib beradi. Tijorat banklaridagi auditorlik riskining tarkibiy qismlari - tug'ma risk, nazorat risk va aniqlash riski - boshqa sohalarga qaraganda sezilarli darajada yuqori. Ushbu xavflarning kuchayishiga sabab bo'ladigan asosiy omillar quyidagilardan iborat:

✓ Bank faoliyatida kredit operatsiyalarining ulushi katta bo'lib, kreditlarning qaytarilmasligi xavfi auditorlik jarayonida asosiy risklardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

✓ Banklar ko'pincha murakkab moliyaviy vositalardan foydalanadi, masalan, derivativlar va xalqaro valyuta bitimlari. Ushbu operatsiyalarni tekshirish auditorlardan maxsus malaka va ko'nikmalarni talab qiladi.

✓ Ba'zi banklarda ichki nazorat tizimining samaradorligi past bo'lib, bu nazorat riskining oshishiga olib keladi.

Xulosa va takliflar

Tijorat banklarida auditorlik tekshiruvini o'tkazishda auditorlik riskini baholash moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlash va bankning moliyaviy barqarorligini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

✓ Tijorat banklarida auditorlik riskining asosiy tarkibiy qismlari — tug'ma risk, nazorat risk va aniqlash riski — boshqa sohalarga qaraganda yuqoriroq bo'lishi aniqlandi. Bu risklarning kuchayishi bank faoliyatining murakkabligi, operatsiyalar hajmi va xilma-xilligi bilan bog'liqdir.

✓ Ichki nazorat tizimining samaradorligi auditorlik riskini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq ba'zi banklarda ichki nazorat tizimining zaifligi auditorlarning qo'shimcha tekshiruv va tahlil o'tkazishiga sabab bo'ladi. Bu esa, nazorat riskining oshishiga olib keladi.

✓ Auditorlarning malakasi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish auditorlik riskini samarali boshqarishda asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi. Raqamli vositalar yordamida ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish aniqlash riskini sezilarli darajada kamaytiradi.

✓ Riskga asoslangan auditorlik yondashuvi tijorat banklarida eng yuqori xavfga ega operatsiyalarga e'tibor qaratish imkonini beradi. Ushbu yondashuv resurslardan samarali foydalanishga va auditorlik jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi.

✓ Tadqiqot natijalariga ko'ra, auditorlik riskini samarali boshqarish uchun integratsiyalashgan yondashuvlar va uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish zarurligi aniqlandi. Bunda ichki va tashqi auditorlarning hamkorligi muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tojiyeva, M. M. (2023). KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MAMLAKAT IJTIMOIIY-IQTISODIY HAYOTIDAGI AHAMIYATI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 126-130.
2. Farmonov, I. (2024). O'ZBEKISTONDA KRIPTOVALYUTA VA KRIPTO-BIRJALARNI JORIY QILISH MECHANIZMLARI. University Research Base, 260-263.
3. Melibaeva G. N. (2024). THE IMPACT OF MARKETING INNOVATIONS ON COMPETITIVENESS. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 12, 39–43. <https://doi.org/10.54613/ku.v12i.985>
4. A. Yusupov. (2024). ANALYSIS OF THE ORGANIZATIONAL MECHANISM OF EFFECTIVE USE OF HUMAN RESOURCES IN SMALL BUSINESS SUBJECTS IN UZBEKISTAN. European Journal of Economics, Finance and Business Development, 2(5), 70–73.
5. Iqboljon o'g'li, F. I. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI O'LCHASH OMILLARI. Kokand University Research Base, 746-750.
6. Yuldasheva, N. A. , Bobojonov, J., Tuxtaboyev, M., & Hakimov, A. (2023). O'ZBEKISTON RESBUPLIKASIDA KICHIK BIZNESNI QURILISH SOHASIDAGI ULUSHI. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS", 2(2), 122–126.